



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 490 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
<i>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</i>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
<i>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<i>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</i>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
<i>Sattarov Farrux Nuridinovich</i>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
<i>D. K. Ibadullayev</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
<i>Isabekova Dilafuz Shermirzayevna</i>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<i>Юсупова Элеонора Фердинандовна</i>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
<i>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<i>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</i>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
<i>M. D. Boynazarova</i>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
<i>Нормуратов Абдулла Саппарович</i>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<i>Normuratov Abdulla Sapparovich</i>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
<i>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<i>Omonova Charos Baxodir qizi</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<i>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</i>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<i>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</i>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
<i>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</i>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<i>Abdumannan Maxammatov</i>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darolarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darolarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darolarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari 198 Salomov Abdurasul Axmadovich</p> <p>Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi 201 Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari..... 205 Sojida Safarova Saxadin qizi</p> <p>Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida..... 207 Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</p> <p>Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish 210 Xoldorova Mashxura G'ulomovna</p> <p>Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов 214 Нурбаев Бахтиёр Шириневич</p> <p>Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari..... 217 To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</p> <p>Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati 223 X. Xalilova, N. Niyazova</p> <p>Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response 227 Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</p> <p>Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments 230 Turumova Marjona Bakhodirovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati 233 Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi</p> <p>Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari 236 Sultanov Xaytboy Eraliyevich</p> <p>Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari 241 Umarov Qobiljon</p> <p>Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari 245 Jannazarova Juldizxan Aliiyar qizi</p> <p>Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 250 Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi</p> <p>Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek 253 Khaydarova Guzalkhon</p> <p>Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor 256 Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna</p> <p>Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi 261 N. Nomozova, A. Muxamadiyev</p> <p>Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari..... 267 Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna</p> <p>Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli 272 Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi</p> <p>Algebra fanini o'rganishda talabning xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari 277 Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi</p> <p>Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей 280 Бозорова Хулкар Одинакуловна</p>
-------------------------------------	--



Оптимизация трудовых отношений в системе общего среднего образования на основе HR-менеджмента: эмпирический анализ.....	284
Турикова Лазокат Машрабовна	
Pedagoglarning huquqiy maqomi hamda global kompetensiyalar bilan bog'liq muammo va yechimlar.....	296
Javohir Baxtiyorovich Shukurov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning kommunikativ yondashuv asoslari.....	305
Holikulova Feruza Xasanovna	
Talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning agressiv xulq-atvorga ta'siri.....	309
Tosheva Sayyora Raxmonqulovna	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	314
Nurmatova Iroda Toxtasinovna, Qutlimuratova Dilnoza Oybek qizi	
O'quv materiallarini didaktik prinsiplar asosida bayon qilishning nazariy-amaliy asoslari.....	318
Turdiyeva Navruza Sheraliyevna	
Raqamli va globallashtirilgan muhitda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish.....	323
Avazova Xidoyat Zafar qizi	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asar tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish orqali o'quvchilar nutqini boyitish ("Bog'bon va nihol" rivoyati misolida).....	327
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Abduxalilova Mohinur To'raqul qizi	
Qoraqalpog'iston cho'l yaylovlarning holatiga katta qumsichqonlar ta'sirini baholash.....	331
Adilbayeva Genjexan	
O'zbekiston zaminida uyg'onish - renessans hodisasining yuz berishi: shakllanishi, musulmon va insoniyat dunyosi taraqqiyotidagi o'rni.....	335
Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ekologik kompetentligini badiiy-loyihaviy faoliyat orqali rivojlantirish metodikasi.....	340
Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish orqali orfoqrafik va orfoepik bilimlarni shakllantirish.....	344
Mamasidikova Naima Toxirjon qizi	
Talabalarining mustaqil o'qish va o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishning metakognitiv aspektlari.....	348
Mirsobitova Parvina Bahodir qizi	
Sun'iy intellekt vositasida talabalarining axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari..	351
Muminov Zokir Sharop o'g'li	
Ta'lim muhitining o'quvchilarning emotsional holatiga ta'siri.....	354
Nurmatov Nurhayot Nurziyat o'g'li, Otaqurbonbova Nigina Rustam qizi	
STEAM yondashuvi asosida o'simliklar fiziologiyasi fanida o'quv mazmunini didaktik qayta tashkil etish xususiyatlari.....	358
Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi	
Особенности развития эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста.....	363
Мирзаева Наргиза	
Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari.....	367
Abdanbekova Nilufar Rixsiyevna	
O'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari.....	370
Ismailova Shaira Ferdausovna	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	373
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
Inkluziv ta'limda pedagoglarning mahorati va pedagogik innovatsiyalar.....	378
Raxmonova Gullola Shavkatovna	
The Impact of Collaborative Writing Activities on EFL University Students' Essay Writing Skills: A Classroom-Based Study.....	382
Shovkiewa Munisa Shonazar kizi	

ChatGPT va generativ AI vositalarining o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari.....	386
<i>Sotivoldiyev Shohruhmirzo Abdumalik o'g'li</i>	
O'qituvchi shaxsining pedagogik etikasi va kasbiy madaniyati.....	390
<i>Sultonova Nargiza Nigmatovna</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning media savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	393
<i>Zaxiriddinova Shaxlo, Nurova Manzura, Murodova Fayoza</i>	
Talabalar matematik tafakkurini rivojlantirishda analizdan masalalar yechish strategiyalari	397
<i>Zaxiriddinova Shaxlo, Tuffiyeva Roziya, Ismatullayev Javohir</i>	
Роль социальной компетенции в процессе интенсивного когнитивного развития	402
<i>З. Ф. Азизова</i>	
Роль научного знания в повышении качества образования	406
<i>Сагатова Диёра Абдулазиз кизи</i>	
Методы использование информационных технологий в научном исследовании качества образования в ВУЗе.....	409
<i>Уразова Марина Батыровна, Туленова Карима Жандаровна, Генжебаева Кундуз Саламат кызи</i>	
Академический стресс и формирование механизма “самообвинения” у студентов.....	412
<i>Хошимова Дилорам Анваровна, Немаджанова Наргиза</i>	
OTM, mahalla va oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy muhitni takomillashtirish tizimi.....	416
<i>Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich, Abdilaxatov Zafar Abdigapirovich</i>	
O'smirlar deviant xulq-atvori shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik bosh omil sifatida.....	421
<i>Olliberdiyeva Buoysha Baxromjon qizi, Tohirova Go'zaloy Davronbek qizi</i>	
Oliy ta'limda tasviriy va amaliy san'at integratsiyasining zamonaviy pedagogik metodlari (Buxoro amaliy san'ati misolida).....	426
<i>Abdullayev Suxrob Sayfullayevich</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda steam yondashuvining roli	431
<i>Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li</i>	
Deviant xulq shakllanishining biopsixologik faktorlari.....	434
<i>Ro'ziqulova Sevinch Ubaydullo qizi, Tohirova Go'zal Davronbek qizi</i>	
Эмоциональная устойчивость как психологический фактор развития профессиональной компетентности будущих педагогов	437
<i>Рафиев Фарход Акилович</i>	
Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillashtirishning metod va mexanizmlari.....	440
<i>Aziboyev Shuhrat Olimovich</i>	
Bola nutqi buzilishlarining psixologik sabablari.....	444
<i>Xadicha Kamalova, Ziyodullo Elov</i>	
O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlash va mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish	448
<i>Xolmatova Sabohat Ilhomovna</i>	
O'qish savodxonligi darslarida xalqaro baholash tadqiqoti topshiriqlaridan foydalanish	452
<i>Boychayeva Sharifa Saidkulovna</i>	
Формирование иноязычной коммуникативной компетенции с помощью задания “диктоглосс”	457
<i>Касымова Феруза Суннатовна</i>	
Ta'lim paradigmalarining evolyutsiyasi va zamonaviy tendensiyalari	462
<i>Abdug'aniyeva Shaxzoda Shuxrat qizi</i>	
O'qish savodxonligi darslarida badiiy va ilmiy-ommabop matnlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	466
<i>Ostonova Madina Furqat qizi</i>	
Milliy cholg'u sozlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari	470
<i>Raimjonov Sunnatulla O'ktamovich</i>	
Forsayt pedagogikasi asosida talabalarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning amaliy jihatlari	474
<i>Dushaboyeva Dinara Bahrom qizi</i>	



Sun'iy intellekt yordamida individual o'qish yo'nalishini yaratish	478
Irgasheva Madina Irgashovna	
Ahmad al-Farg'oniyning hayot yo'li va ilm-fanga qo'shgan hissasi	483
Temirov Nabijon Solievich, Mo'sajonova Gulxumor Abduhalim qizi	
Data-Driven yondashuv asosida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini monitoring qilish va prognozlash modeli	486
Valiyev Jasurbek Saydullo o'g'li	



O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTI TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
Aniq, tabiiy fanlar, maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini PIRLS xalqaro baholash dasturi mezonlari asosida rivojlantirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan yoritiladi. Tadqiqot obyekti sifatida Olqor Daminning "Tabiatni avaylaymiz" she'ri tanlab olingan bo'lib, u orqali matnni tushunishning to'rtta kognitiv darajasi (ma'lumot izlash, xulosa chiqarish, interpretatsiya va baholash) tahlil qilinadi. Shuningdek, 4K va 5E modellarning o'qish savodxonligini oshirishdagi o'rni hamda badiiy matnlar asosida ochiq va yopiq turdagi topshiriqlarni ishlab chiqish metodikasi bayon etiladi.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, 4K modeli, 5E modeli, boshlang'ich ta'lim, mantiqiy fikrlash, kognitiv jarayonlar, tabiatni e'zozlash, badiiy matn tahlili.

Abstract: The development of logical and creative thinking skills in primary school students based on the criteria of the PIRLS international assessment program is analyzed from a scientific and pedagogical perspective. The poem "Let's Protect Nature" by Olqor Damin is selected as the object of study, through which four cognitive levels of text comprehension (retrieving information, making inferences, interpreting, and evaluating) are examined. The role of the 4K and 5E models in enhancing reading literacy is also discussed, along with the methodology for developing open-ended and closed-ended tasks based on literary texts.

Key words: PIRLS, reading literacy, 4K model, 5E model, primary education, logical thinking, cognitive processes, nature conservation, literary text analysis.

Аннотация: Вопросы развития навыков логического и творческого мышления учащихся начальных классов на основе критериев международной программы оценивания PIRLS раскрываются в научно-педагогическом аспекте. В качестве объекта исследования выбрано стихотворение Олзора Дамина "Бережем природу", на примере которого анализируются четыре когнитивных уровня понимания текста (поиск информации, формулирование выводов, интерпретация и оценка). Также рассматривается роль моделей 4K и 5E в повышении читательской грамотности, а также методика разработки открытых и закрытых заданий на основе художественных текстов.

Ключевые слова: PIRLS, читательская грамотность, модель 4K, модель 5E, начальное образование, логическое мышление, когнитивные процессы, бережное отношение к природе, анализ художественного текста.

KIRISH

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida ta'lim tizimining asosiy vazifasi o'quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni berish, balki ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida, xususan, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirishning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

PIRLS xalqaro tadqiqoti 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va uni qabul qilish sifatini baholab, ularning savodxonlik darajasini dunyo miqyosida qiyoslaydi. Mazkur baholash tizimi o'quvchidan shunchaki mexanik o'qishni emas, balki:

1. Matndan kerakli ma'lumotni izlab topish;
2. Aniq xulosalar chiqarish;
3. Matndagi g'oyalarni umumlashtirish va talqin qilish;
4. Matnning tarkibiy qismlari va mazmunini tanqidiy baholash kabi murakkab ko'nikmalarni talab etadi.



Zamonaviy darsliklar va o'quv dasturlariga tatbiq etilayotgan 4K va 5E modellarining integratsiyasi o'quvchilarni aynan mana shunday xalqaro standartlarga tayyorlashda muhim poydevor vazifasini o'taydi. Ushbu matnda tabiatni e'zozlash mavzusidagi badiiy matnlar misolida o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini PIRLS mezonlari asosida rivojlantirish usullari tahlil qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tabiatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish nafaqat tarbiyaviy, balki kognitiv jarayon hamdir. Bunga misol sifatida bolalar shoiri Olqor Daminning "Tabiatni avaylaymiz" she'ri tahlil qilsak, undagi har bir misra o'quvchini kuzatuvchanlikka va mas'uliyatga chorlashini ko'ramiz. She'r mazmunan o'quvchilarning (bolalarning) o'z nomidan, ularning ahdi va va'dasi sifatida yangraydi. Bu esa o'quvchida matn bilan ichki bog'liqlik hissini uyg'otadi.

PIRLS xalqaro tadqiqotlari doirasida bunday matnlar bilan ishlashda o'quvchi oldiga nafaqat "Nima uchun tabiatni asrash kerak?" degan savol, balki "Siz tabiatni qanday avaylaysiz?" kabi shaxsiy munosabatni talab qiluvchi topshiriqlar qo'yiladi. Olqor Damin ushbu she'rida "Qushchalarni qiynamaymiz", "O'tlarni payhon qilmaymiz" kabi aniq xatti-harakatlarni sanab o'tish orqali bolada tabiatni asrashning amaliy ko'rinishlarini gavdalandiradi.

Shu nuqtayi nazardan, dars jarayonida PIRLS mezonlarini qo'llash o'quvchini matndagi muallif maqsadini anglashga va olingan xulosalarni o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lashga o'rgatadi. Mazkur qismda she'riy matnlar orqali o'quvchilarning mantiqiy savodxonligini oshirish va ularda ekologik madaniyatni xalqaro standartlar darajasida shakllantirish metodikasi ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAERHI

O'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi xalqaro va milliy pedagogik tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Xususan, U. N. Tashkenbayev umumiy tahriri ostida tayyorlangan "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" asarida PIRLS tadqiqotining metodologik asoslari, o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalarini baholash mezonlari va xalqaro talablar tizimi batafsil yoritilgan. Unda o'qish savodxonligi faqat texnik o'qish emas, balki matnni anglash, talqin qilish va baholash jarayoni sifatida izohlanadi. Mazkur yondashuv o'qish savodxonligi darslarida xalqaro topshiriqlardan foydalanish zaruratini ilmiy asoslaydi.

Milliy metodik manbalarda ham o'qish savodxonligini shakllantirishning amaliy jihatlari keng yoritilgan. Jumladan, U. B. Aydarovanning 2-sinf uchun mo'ljallangan "O'qish savodxonligi" darsligida matn bilan ishlashning bosqichlari, o'quvchilarning fikrlashini rivojlantiruvchi savol va topshiriqlar tizimi berilgan. Darslikda o'quvchilarni matndan ma'lumot topish, xulosa chiqarish, fikrni asoslash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar PIRLS talablari bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan. Bu esa boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash topshiriqlarini joriy etishning metodik asoslarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, pedagogik manbalar va ilmiy-metodik resurslarda, jumladan Toshkent davlat pedagogika universitetining rasmiy veb-saytida e'lon qilingan materiallarda o'qish savodxonligini oshirishda interfaol metodlar, tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar va kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Ushbu manbalarda xalqaro baholash tizimlari, xususan PIRLS dasturi talablariga mos topshiriqlarni dars jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda o'qish savodxonligi darslarida xalqaro baholash topshiriqlaridan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun nazariy va empirik usullar qo'llanildi. Ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, test va topshiriqlar orqali o'quvchilarning natijalarini yig'ish yo'li bilan olindi. Xususan, PIRLS mezonlariga mos yopiq va ochiq turdagi topshiriqlar ishlab chiqilib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi: test natijalari solishtirish, foiz ko'rsatkichlari va o'zgarish dinamikasi asosida baholandi, ochiq savollarga berilgan javoblar esa mazmuniy tahlil orqali o'rganildi. Shuningdek, o'quvchilarning matnni anglash, xulosa chiqarish va fikrni asoslash darajasi taqqoslash usuli yordamida aniqlanib, umumlashtirish orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlashda jahon miqyosidagi eng nufuzli tadqiqotlardan biri hisoblanadi, yuqorida qayd etib o'tdik. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi o'quvchining nafaqat o'qish texnikasini, balki matn bilan ishlash jarayonidagi kognitiv qobiliyatlarini baholashga qaratilgan.

PIRLS baholash tizimi o'quvchilarning matnini o'zlashtirishini to'rtta asosiy jarayon orqali tahlil qiladi:

- Aniq ifodalangan ma'lumotlarni izlab topish bosqichida o'quvchi matnda bevosita berilgan faktlarni, qahramonlar ismini yoki voqea sodir bo'lgan joyni aniqlaydi.
- To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarishda esa o'quvchi matndagi ikki yoki undan ortiq ma'lumotlarni o'zaro bog'lab, matnda ochiq aytilmagan, lekin mantiqan kelib chiqadigan xulosani shakllantiradi.
- Ma'lumotlarni interpretatsiya qilish va umumlashtirish darajasida o'quvchidan matnning umumiy mazmunini anglashni, qahramonlarning xatti-harakatlari sabablarini tushunishni va matn qismlari orasidagi yashirin bog'liqliklarni topishni talab qiladi.
- Matnning mazmuni va tarkibiy qismlarini baholash bosqichi eng yuqori daraja bo'lib, bunda o'quvchi matnga tanqidiy ko'z bilan qaraydi, muallifning uslubini, qo'llangan badiiy tasvir vositalarini va matnning hayotiy ahamiyatini tahlil qiladi.

O'quvchilarni PIRLS talablariga tayyorlashda an'anaviy dars o'tish usullaridan voz kechib, interfaol metodlarga tayanish kutilgan natijani beradi. Xususan:

- 4K modeli (kreativlik, kritik fikrlash, kollaboratsiya, kommunikatsiya). Bunda matn ustida ishlashda o'quvchilarning guruhlarda ishlashi va muammoli vaziyatlarga kreativ yechim topishi ularning mantiqiy savodxonligini oshiradi.

Endi Olqor Daminning "Tabiatni asraymiz" she'ri bilan tanishib, tahlil qilib chiqsak. She'r 2-sinf o'qish savodxonligining IV qismida berilgan.

Tabiatni avaylaymiz

Qushchalarni qiynamaymiz,
Qanotlarini yulmaymiz.
O'tlarni payhon qilmaymiz,
Tabiatni avaylaymiz!
Teraverib lolalarni,
Ranjitmaymiz odamlarni.
Sindirmaymiz bodomlarni,
Tabiatni avaylaymiz!
Ming xil giyoh, jonivorlar
Tabiatni qilar dilbar.
Keling, birga deylik, do'stlar:
Tabiatni avaylaymiz!

(Olqor Damin)

She'rni xalqaro baholash doirasida ko'rib chiqamiz. PIRLS yo'nalishidagi darslarda savollar ikki ko'rinishda shakllantirilishi maqsadga muvofiq:

1. **Yopiq testlar:** o'quvchining diqqatini jamlash va matndagi aniq detallarni eslab qolish darajasini tekshiradi.
2. **Ochiq savollar:** o'quvchini mulohaza yuritishga, o'z javobini matndan olingan dalillar bilan asoslashga o'rgatadi. Aynan ochiq savollar o'quvchining mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu tarzda, PIRLS mezonlarini dars jarayoniga muntazam tatbiq etish o'quvchilarda axborotni saralash, tahlil qilish va undan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'tkazilgan tahlillar va Olqor Daminning "Tabiatni avaylaymiz" she'ri asosida ishlab chiqilgan PIRLS darajasidagi topshiriqlar shuni ko'rsatadiki, matn ustida ishlash o'quvchining shunchaki savodxonligini emas, balki uning ijtimoiy va ekologik dunyoqarashini ham shakllantiradi.

1. She'rda tabiatning go'zalligini nimalar ta'minlashi aytilgan?

- A) Odamlar va bolalar
- B) Ming xil giyoh va jonivorlar
- C) Bodomlar va lolalar
- D) Bog'lar va daryolar



2. Muallif “Qanotlarini yulmaymiz” deganda kimlarni nazarda tutgan?

- A) Ka palaklarni
- B) Hasharotlarni
- C) Qushchalarni
- D) O'tlarni

3. Insonlar lolalarni terishi natijasida kimlar ranjishi mumkinligi aytilgan?

- A) Odamlar
- B) Qushlar
- C) Jonivorlar
- D) Do'stlar

4. “Payhon qilish” so'zining ma'nosi ushbu she'rda qaysi qatorda to'g'ri tushuntirilgan?

- A) Parvarish qilish
- B) Ekish va o'stirish
- C) Tozalash
- D) Bosib-yanchish, nobud qilish

5. She'rning asosiy g'oyasi nimalardan iborat?

- A) Faqat bodomlarni asrash
- B) Tabiatni e'zozlash va himoya qilish
- C) Do'stlar bilan sayr qilish
- D) O'simliklar haqida ma'lumot to'plash

6. She'rning birinchi bandida tabiatni asrash uchun nimalar qilmaslik kerakligi aytilgan? Kamida ikkita holatni yozing.

Javob: Qushlarni qiynamaslik va o'tlarni payhon qilmaslik.

7. Nima uchun muallif “Tabiatni avaylaymiz!” jumlasini har bir band oxirida takrorlagan deb o'ylaysiz?

Javob: Bu jumla she'rning asosiy maqsadini ta'kidlash va o'quvchilarni tabiatni asrashga chorlash uchun takrorlangan.

8. She'rdagi “Tabiatni qilar dilbar” degan jumlaning o'z so'zlaringiz bilan qanday tushuntirasiz?

Javob: Tabiatdagi o'simliklar va hayvonlar dunyoni go'zal, chiroyli va zavqli qiladi.

9. Muallif nima uchun “Keling, birga deylik, do'stlar” deya murojaat qilmoqda? Uning maqsadi nima?

Javob: Tabiatni bir kishi emas, balki hamma birgalikda ji pslashib himoya qilishi kerakligini ko'rsatish uchun.

10. Siz tabiatni avaylash uchun yana qanday ishlarni amalga oshirgan bo'lardingiz? (Matndan tashqari o'z fikringizni yozing).

Javob: Chiqindilarni duch kelgan joyga tashlamaslik, daraxtlarni sug'orish va yangi ko'chatlar ekish.

Kognitiv jarayonlar tahlili

Yopiq va ochiq testlar natijasida o'quvchilarning matnni tushunish darajasi quyidagi to'rtta bosqichda namoyon bo'ladi:

- Ma'lumotni izlab topish** (1, 2, 3-savollar): o'quvchilar matndagi faktlarni, kim ranjishi, kimning qanoti yulinmasligini tezkor aniqlaydi. Bu PIRLSning eng quyi, ammo poydevor darajasidir.
- Aniq xulosalar chiqarish** (4, 5-savollar): "Payhon qilish" kabi so'zlarning kontekstual ma'nosini topish o'quvchidan so'z boyligi va mantiqni talab etadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, badiiy matn bilan ishlash o'quvchining lug'at zaxirasini boyitadi.
- Interpretatsiya va talqin** (7, 8, 9-savollar): muallifning "Tabiatni avaylaymiz!" jumlasini takrorlashdan maqsadini tushuntirish o'quvchini matnning badiiy qatlamiga olib kiradi. Bu bosqichda o'quvchilar muallif pozitsiyasini o'zlashtiradilar.
- Baholash va shaxsiy munosabat** (6, 10-savollar): o'quvchining "Siz yana nimalar qilgan bo'lardingiz?" degan savolga javobi uning matndan olgan xulosasini hayotga tatbiq eta olish qobiliyatini ko'rsatadi.

Metodik natijalar shuni ko'rsatadiki, she'riy matnlar asosida tuzilgan ochiq savollar o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'quvchi javob namunasidagi kabi o'z fikrini asoslab berishi uning nutq madaniyatini oshiradi.

Ko'nikma turi	O'quvchi erishadigan natija
Mantiqiy fikrlash	Sabab va oqibat bog'liqligini (lolalar terilsa – odamlar ranjydi) anglaydi.
Ekologik madaniyat	Tabiatni asrash faqat tushuncha emas, balki harakat ekanligini tushunadi.
Tanqidiy tahlil	Muallif murojaatining "Keling, birga deylik" iborasidagi ijtimoiy mazmunni anglaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, PIRLS xalqaro baholash tizimi talablari asosida darslarni tashkil etish o'quvchilarni matn mazmunini chuqur tahlil qilishga o'rgatadi. Olqor Daminning ushbu she'ri misolida ko'rganimizdek, badiiy matn nafaqat o'qish obyekti, balki o'quvchining ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishi uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida PIRLS xalqaro baholash dasturi talablarini tatbiq etish bugungi kun ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Olqor Daminning "Tabiatni avaylaymiz" she'ri misolida ko'rib chiqilgan metodik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, badiiy matn shunchaki o'qish materiali emas, balki o'quvchining mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini charxlovchi laboratoriyadir.

O'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

- PIRLS mezonlari asosida tuzilgan savollar o'quvchini matnning yuza qatlamidan (faktlarni topish) chuqur qatlamlariga (muallif maqsadini anglash va xulosa chiqarish) olib o'tadi. Bu esa bolaning intellektual salohiyatini tizimli ravishda oshiradi.
- Tabiatni asrash mavzusidagi matnlar orqali o'quvchilarda nafaqat o'qish ko'nikmasi, balki atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllanadi. She'rdagi "birga deylik" so'zlari orqali o'quvchi jamoaviy mas'uliyatni his qilishni o'rganadi, bu esa ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.
- O'qituvchi tomonidan 4K va 5E modellari asosida ishlab chiqilgan ochiq savollar o'quvchini tayyor javobni tanlashdan chekinib, o'z dunyoqarashini bayon etishga undaydi. Bu jarayon o'quvchining so'z boyligini oshirish barobarida, uni xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga ruhan va ilmiy jihatdan tayyorlaydi.

Umuman olganda, PIRLS talablari asosida darslarni tashkil etish o'quvchining ma'lumotlarni tahlil qilish, voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni topish va o'z fikrini dalillash qobiliyatini yuksaltiradi. Zero, o'qish savodxonligi yuqori bo'lgan o'quvchi kelajakda har qanday sohada axborotlar bilan to'g'ri ishlay oladigan, mustaqil fikrli shaxs bo'lib yetishadi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim mazmunini xalqaro standartlar bilan boyitish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishning eng samarali yo'li hisoblanadi.

Foydalaniilgan adabiyotlar ro'yxati:

- U. N. Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash.
- <http://www.pedagog.uz> – Toshkent davlat pedagogika universiteti veb-sayti.
- U. B. Aydarova. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. IV qism. – "Novda Edutainment", 2023-yil, 76–77-betlar.
- <https://www.xabar.uz/uz/talim/ozbekiston-PIRLS-2021>
- <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/17/PIRLS/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.